“USMON NOSIR” kitobi chop etildi

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktaranti, Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Javlon Jovliyevning lotin va kirill yozuvlarida “Usmon Nosir” dramasi chop etildi. Kitob Prezidentimizning 2022-yil 10-fevraldagi “Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosi ta’minlash maqsadida nashr qilingan. Maslahatchilar akademik Naim Karimov, professor Jabbor Eshonqul, nashr uchun mas’ul professor Bahodir Karim. Drama faqat yuksak iste’dod egasi, millatning chin shoiri Usmon Nosir haqida emas. Yo‘q, u bugungi davr haqida ham so‘zlaydi. Zero, tarix haqida yozib shu kun xulosasini chaqarmas ekanmiz, u qog‘ozni shunchaki bo‘yab-bejashdek gap. Vatan, shubhasiz, o‘z ilmli yoshlarini asrashi, ko‘paytirishi va qo‘llashi kerak. Zero, uning ertasi shunga bog‘liqdir!

Drama, aslida, shu haqida.Ushbu kitob Usmon Nosir tavalludining 110-yilligi munosabati bilan G‘ijduvon tuman hokimi Sherzod Rahimovich Ashurov homiyligida chop etildi.

Eslatib o‘tamiz, ushbu drama Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan.